ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

Rezyume. Maqolada metaforalar shakllanishida insonning kognitiv faoliyati, bilim va tajribalari, assotsiativ va obrazli tafakkuri hamda etnik stereotiplarning roli xususidagi mulohazalar o‘zbek tilidagi uzual metaforalar tahlili misolida asoslangan.

Resume. The article examines the role of human cognitive activity, knowledge and experience, associative and figurative thinking, and ethnic stereotypes in the formation of metaphors, using the example of analyzing conventional metaphors in the Uzbek language.

Резюме. В статье рассматривается роль когнитивной деятельности человека, знаний и опыта, ассоциативного и образного мышления, этнических стереотипов в формировании метафор на примере анализа узуальных метафор в узбекском языке.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

AKSIOLINGVISTIKADA QADRIYAT TUSHUNCHASI VA UNING TURLARI

Лутфуллаева Дурдона,
филология фанлари доктори, профессор

Keyingi yillarda dunyo tilshunosligida til tadqiqida uning mavjudligi, takomili yoki inqiroziga ta’sir ko‘rsatuvchi barcha omillar qatorida inson omilini ham inobatga olishga, tilning insonga va insonning tilga ta’sirini o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratila boshlandi. Natijada tilshunoslikning inson fenomeni bilan bog‘liq ilmiy muammolarni o‘rganuvchi turli sohalar bilan hamkorligiga asoslangan yangi yo‘nalishlari yuzaga keldi. Mana shunday yo‘nalishlardan biri aksiolingvistika bo‘lib, unda asosiy e’tibor tilshunoslik va aksiologiya sohalari kesishmasida kuzatiladigan ilmiy muammolarni tadqiq etishga qaratildi.

Aksiolingvistikada til, uning birliklarida aks etgan qadriyatlar tizimi tadqiq etiladi. Qadriyatlarni aks ettiruvchi til birliklari tilshunoslikda *aksiologema* (qadriyat birliklari) deb ataladi[1]. Bunday birliklarga kishilar tomonidan qadrlanadigan moddiy artefaktlar, urf-odat, an’analar, odob-axloq me’yorlari, ma’naviy-ma’rifiy, diniy, falsafiy g‘oyalar, tushunchalarni tilda aks ettiruvchi birliklar kiradi.

Ma’lumki, dunyo tilshunosligida XX asarning oxiriga kelib turli xalqlarning o‘ziga xos qadriyatlari tizimining tilda voqelanishi masalasi o‘rganila boshlandi[2].

Keyingi yillarda tilshunoslikda qadriyatlar madaniyatshunoslik aspektida ham o‘rganilmoqda.

[1] Кочеров С. Н. “Аксиологема” как проблема теории ценностей // Credo New. 2011. – №4. – С. 2; Самсонова А.А. Аксиологема как специфическое средство выражения ценностного содержания в жанре рецензии // Тамбов на карте генеральной: социально-экономический, социокультурный, образовательный, духовно-нравственный аспекты развития региона // Сборник материалов Всероссийской научной конференции. –Тамбов, 2016. – С. 149-151 / https://www.elibrary.ru/item.asp?id=32385059; Кретов А. А., Стародубцева Ю. А. Русские аксиологемы по данным МАСа-2 // Политическая лингвистика. 2016. – №2 (56). –С. 140-154// http://elar.uspu.ru/handle/ uspu/2904; Карелина В.А., Садовникова О.Н. Базовые аксиологемы китаеязычного рекламного дискурса // Актуальные проблемы гуманитарных наук: всероссийская научно-практическая конференция (Нижневартовск, 20 февраля 2021 года). – Нижневартовск: Нижневартовский государственный университет, 2021. – С. 514-521.

[2] Арутюнова Н. Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. – М.: Наука, 1988. – 341 с.; Радбиль Т.Б. “Язык ценностей” в современной русской речи и пути его исчисления // Вестн. Нижегородского ун-та им. Н. И. Лобачевского. 2011. –№ 6(2). – С. 569–573; Павлов С.Г. Лингвоаксиологическая модель человека: научно-методический аспект // Вестник Мининского университета. 2013. – № 2. – С. 56–68; Карасик В. И. Лингвокультурные ценности в дискурсе // Иностранные языки в высшей школе. 2015. – № 1 (32). – С. 25-35; Шалина И. В., Пикулева Ю. Б. К проблеме описания методики лингвоаксиологического анализа (на материале диалогического общения носителей просторечной культуры) // Научный диалог. 2016. – № 11 (59). – С. 121-132.

Tilshunoslikda tilni xalq madaniyati bilan bog‘liq holda o‘rganishga yondashuvning yuzaga kelishi natijasida kishilar tomonidan qardlanadigan narsalar, hodisalar, g‘oyalar, qarashlarni aks ettiruvchi lisoniy birliklarni lingvistik aspektda o‘rganishga yo‘l ochildi. Zero, qadriyat madaniyatning bir bo‘lagi, uning tarkibiy qismidir. Shu jihatdan qadriyat kategoriyasining madaniyatshunoslik aspektida ham o‘rganilishi mantiqiydir. Madaniyatshunoslikdan farqli tarzda aksiolingvistika qadriyatlarning tilda verballashuvi qonuniyatlarini tadqiq etuvchi alohida soha sifatida maydonga keldi.

Shunga qaramay, qadriyatlarning lingvomadaniyatshunoslikda ham o‘rganilishi kuzatiladi. Xususan, V.P. Sinyachkin, N.A.Sergienkolarning dissertatsiyalarida rus madaniyatidagi qadriyatlar lingvomadaniyatshunoslik aspektida tadqiq qilingan[1].

Tilshunoslikda, shu bilan birga, turli xalqlar qadriyatlarining tildagi ifodalarini aksiolingvistik aspektda tadqiq etishga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham ko‘plab uchraydi. Xususan, G.Bagautdinova, L.K. Bayramova, E.Bogdanovalarning tadqiqotlarida tildagi qadriyatlar aksiolingvistik aspektda o‘rganilgan. G.Bagautdinovaning tadqiqot ishida frazeologizmlarda inson omili hamda qadriyatlarning aks etishi masalasi ochib berilgan[2]. R.Yunusova rus va tatar tillaridagi mehmondo‘stlik tushunchasini anglatuvchi frazeologizmlarning aksiologik xususiyatlarini yoritgan[3]. E. Bogdanova rus va fransuz tillaridagi *yaxshilik* («dobro») va *yomonlik* («zlo») konseptlarining aksiologik xususiyatlarini ochib bergan[4].

Shunisi xarakterliki, rus tilshunosligida ayrim lisoniy qadriyatlarning izohli lug‘atlari ham yaratilgan. Jumladan, L.K.Bayramova rus tilidagi frazeologizmlarning aksiologik lug‘atini tuzgan[5]. Olima V.A.Boychuk bilan hamkorlikda 9 ta til – rus, ukrain, belorus, bolgar, polyak, chex, ingliz, nemis, fransuz tillaridagi frazeologizmlarning qiyosiy aspektdagi aksiologik lug‘atini ham yaratgan[6]. Anglashiladiki, aksiolingvistikaning shakllanishida rus tilshunoslarining xizmati katta.

O‘zbek tilshunosligida ham so‘nggi yillarda aksiolingvistik aspektda tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Jumladan, E.Ibragimova o‘zbek tilida milliy qadriyatlarni ifodalovchi leksik birliklarni aksiolingvistik aspektda tadqiq qildi[7]. Sh.Xudayqulovaning tadqiqot ishida o‘zbek tilidagi qadriyat ifodalovchi leksik birliklarning semantik-stilistik xususiyatlari yoritildi. Bu ishda qadriyatlarni ifodalovchi leksik birliklar qo‘llangan frazeologizmlar ham tahlilga tortilgan. Shuningdek, badiiy asarlarda erk qadriyatining ifodalanishi, bu qadriyatning erksizlik aksqadriyati bilan zidlanishi masalasi o‘rtaga tashlangan[8].

X.Uzakovaning tadqiqotida esa *sadoqat* konseptini ifodalovchi lekcik birliklarning aksiologik xususiyatlari o‘rganilgan[9].

O‘zbek tilshunosligida aksiolingvistik aspektda eng ko‘p o‘rganlgan biriklar maqollardir. O‘zbek xal maqollarining aksiolingvistik xususiyatlari dastlab G. Komilovaning tadqiqot ishida yoritildi. Mazkur tadqiqotda *sabr* konsepti ifodalangan maqollarda ushbu qadriyatning voqelanishi masalasi tahlil qilindi, maqollarda baho munosabatining ifodalanishi yoritildi, shuningdek, *aksiologema, aksiologik mazmun* tushunchalariga munosabat bildirildi[10].

Qadriyatlarni aks ettiruvchi o‘zbek xalq maqollari chog‘ishtirma aspektda ham tadqiq etildi. Jumladan, R.Majidova o‘zbek va ingliz tillaridagi maqollarning lingvoaksiologik xususiyatlarini ochib berdi[11]. B.Shamsematovaning tadqiqot ishida esa ingliz va

[1] Синячкин В.П. Общечеловеческие ценности в русской культуре: лингвокультурологический анализ: Дисс… док. филол. наук. – М., 2011. – С. 31.; Сергиенко Н.А. Лингвоментальная антропосфера как фактор категоризатsiи лингвокультур: Дисс... док. филол. наук. – М., 2023. – 411 с.

[2] Багаутдинова Г.А. Человек во фразеологии: антропоцентрический и аксиологический аспекты: Автореф. дисс. … док. филол. наук. – Казань, 2007. – 46 с.

[3] Юнусова Р.Ж. Аксиология фразеологизмов со значением ‘гостеприимство / кунакчыллык’ в русском и татарском языках: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Казань, 2009. – 23 с.

[4] Богданова Е. Концепты “добро” и “зло” в русской и французской лингвокультурах: аксиологический аспект. Автореф. дисс…канд. филол. наук. – Майкоп, 2012. – 23 с.

[5] Байрамова Л.К. Аксиологический фразеологический словарь русского языка. Словарь ценностей и антиценностей. – Казань: Центр инноватsионных технологий, 2011. – 376 с.

[6] Байрамова Л. К., Бойчук В. А. Аксиологический словарь фразеологизмов-библеизмов на русском, украинском, белорусском, болгарском, польском, чешском, английском, немецком, французском языках. – Казань: Центр инноватsионных технологий, 2012. – 351 с.

[7] Ibragimova E. O‘zbek tili leksikasining aksiologik tadqiqi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Farg‘ona, 2018. – 84 b.

[8] Худайкулова Ш. С. Ўзбек тили аксиологик лексикасининг семантик-стилистик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. – Тошкент, 2022. – 150 б.

[9] Uzakova X.K. “Sadoqat” konseptining aksiolingvistik tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD)... diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 50 b.

[10] Комилова Г.Р. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили: Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD)... дисс. – Тошкент, 2022. – 170 б.

[11] Маджидова Р.У. Антропоцентрик мақолларнинг аксиологик тадқиқи (ўзбек ва рус тиллари материаллари асосида): Филол. фан. док. ... дисс. (DSc)… автореф. – Фарғона, 2020. – 76 б.

o‘zbek tillaridagi milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi leksik, frazeologik, sintaktik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari yoritildi[1].

Anglashiladiki, bugungi kunda til birliklarida aks etgan lisoniy qadriyatlar turli tilshunosliklarda tadqiqotchilar tomonidan lingvomadaniy, aksiolingvistik aspektlarda o‘rganilmoqda. Quyida *qadriyat* tushunchasining mohiyati, turlari haqida mulohazalarimizni bayon qilamiz.

Ma’lumki, insonning tashqi olam bilan ilk aloqasi uni hissiy idrok etishidan boshlanadi. Inson tashqi olam va undagi moddiy narsalarni idrok etar ekan, har birini tafakkuri prizmasidan o‘tkazadi: o‘ziga o‘xshash narsalarga qiyoslaydi, muhim jihatlarini ajratadi, boshqa narsalar bilan umumiy bo‘lgan hamda farqlanuvchi belgilarini aniqlaydi.

Insonning olamni bilishi uni baholashidan boshlanadi. Shunisi qiziqarliki, inson obyektni bilish jarayonida unga o‘z bahosini ham beradi: obyektning o‘ziga ma’qul yoki ma’qul bo‘lmagan, salbiy yoki ijobiy deb hisoblagan tomonlarini ajratadi. Insonning tashqi olamni bu tarzda baholashi asosida uning olamga, undagi narsalarga nisbatan qadriyatli munosabati yuzaga keladi. Idrokiy baholash insonning tashqi olam, uning har bir elementi bilan qanday munosabatda bo‘lishini belgilab beradi. Inson obyektni baholash jarayonida ijobiy deb hisoblagan narsalarini qadrlay boshlaydi, boshqacha aytganda, unga qadriyatli munosabatda bo‘ladi.

Tashqi olamga qadriyatli munosabat insonda aksiologik dunyoqarashni yuzaga keltiradi. Shu sababli insonning tashqi olamga qadriyatli munosabati muammosini o‘rganishga eng avvalo falsafiy fanlar – aksiologiya, gnoseologiya, etika, estetika kabilarda e’tibor qaratilgan.

Fan olamida qadriyatlarning o‘rganilishi antik davrga borib taqaladi. Antik davr filosoflari – Platon va Aristotelning etikaga oid qarashlarida qadriyat haqidagi antik xulosalar kuzatiladi. F.Usmanov rus olimlari N.A.Sergienkoning xulosalariga asoslanib, antik davrda Arastu qadriyatlarning «qadrlanuvchi» (xushxulqlik, qalb, aql), «maqtovga sazovor» (maqtovga arziydigan xatti-harakatlar) va «ehtimoliy» (kuchlilik, go‘zallik, boylik, hukmronlik) turlarini ajratganligi» haqida ma’lumot berdi[2].

Manbalarda *qadriyat* tushunchasini fanga o‘tgan asrning ikkinchi choragida nemis filosofi G.Lotse olib kirganligi ta’kidlanadi[3]. V.Vindelband ishlarida esa aqadriyatlar madaniyat fenomeni sifatida baholandi va falsafiy ilmiy muammo sifatida o‘rtaga tashlandi[4].

Yurtimizda qadriyatshunoslikning ayrim masalalari J.Tulenov, Q.Nazarov, M.Mavrulova kabi olimlarning ishlarida maxsus o‘rganilgan[5]. Ushbu olimlarning asarlarida aksiologiya sohasining o‘rganish obyekti, tadqiq masalalari, aspektlari yoritilgan, *qadriyat* tushunchasiga tavsif berilgan, turlari ko‘rsatilgan, milliy qadriyatlarning inson hayotidagi roli, jamiyatning rivojlanishi va barqarorligiga erishishdagi ahamiyati ochib berilgan. Bu o‘rinda *qadriyat* tushunchasining mohiyati va talqini masalasiga munosabat bildirish muhim.

Qadriyat, avvalo, falsafiy tushuncha sifatida jamiyat a’zolari tomonidan qadrlanadigan barcha moddiy narsalar, urf-odat, an’analar, odob-axloq tartiblari, shuningdek, falsafiy, diniy, ma’naviy xarakterdagi ezgu g‘oyalar, tushunchalar, qarashlar, e’tiqodlar majmuyini qamrab oladi. Demak, inson uchun olamdagi moddiy narsalar bilan bir qatorda jamiyat a’zolari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar, qarashlar, hatto ular amalga oshirgan muayyan xatti-harakatlar ham qadriyat bo‘la oladi. Ammo qadriyatni inson uchun uning kundalik hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, u qadrlaydigan har qanday obyekt sifatida tushunishni falsafiy tushunishdan farqlash lozim.

Q.Nazarovning fikricha, «Qadriyatni falsafiy-aksiologik tushunish uning kundalik hayotdagi ishlatilish ma’nosidan farq qiladi. Bu esa qadriyat tushunchasini uning o‘zi bog‘liq bo‘lgan obyektdan farqlash (aslo ajratish emas) bilan birga, uni obyektlarning turli jihatlari (foydalilik, keraklilik) bilan ayniylashtirmaslik imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, qadriyat biror bir tarzda va shaklda zohir bo‘ladigan, subyekt uchun muayyan ta’sirini namoyon qiladigan voqelikning turli-tuman shakllari, ko‘rinishlari, narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va ma’naviylik mezonlari hamda boshqalarning subyekt uchun ijtimoiy ahamiyati va qadrini ifodalaydigan umumiy aksiologik kategoriyadir» [6].

---

[1] Шамсематова Б. Р. Инглиз ва ўзбек тилларида миллий қадриятларни ифода этувчи тил бирликларининг лингвомаданий тадқиқи (инглиз, америка ва ўзбек ёзувчилари асарлари асосида): Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD)... дисс. – Тошкент, 2022. – 147 б.

[2] Usmanov F. O‘zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti: Filol. fan. dokt. (DSc) … diss. – Andijon, 2024. – S. 65.

[3] Bu haqida qarang: Солонин Ю.Н., Каган М.С. Культурология: Учебник. – М.: Высшее образование, 2007. – С. 135.

[4] Qarang: Виндельбанд В. Философия в немецкой духовной жизни XIX столетия (Пер. с нем. П.С.Гуревича). – М.: Наука, 1993. – 103 с.

[5] Туленов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 193 б.; Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (аксиология). – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2004. – 102 б.; Маврулова М. Жамият маънавий барқарорлигини таъминлашда миллий-маданий қадриятларнинг ўрни: Фалсафа фан. бўйича фалс. док. (PhD) дисс. ... автореф. – Тошкент, 2022. – 53 б.

[6] Назаров Қ. Ko‘rsatilgan manba. – B. 66.

Anglashiladiki, muayyan bir obyekt mohiyatiga ko‘ra inson uchun foydali, ahamiyatli bo‘lishi mumkin, ammo inson uni qadriyat sifatida baholamasligi ham mumkin. Bu o‘rinda *qadriyat* tushunchasining subyektiv mohiyatga egaligi namoyon bo‘ladi.

Qadriyat jamiyat a’zolarining olamga qadriyatli munosabati, unga bergan bahosi hosilasidir. Qadriyatlar inson deb atalmish mavjudotning mohiyati, uning olamga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatib beradi. Jamiyat a’zolari tomonidan belgilangan qadriyatlar tizimi kishilarning yashash tarzi, faoliyati, tashqi olamga qanday munosabatda bo‘lishini belgilab beradi. Shu jihatdan ayrim olimlar qadriyatning inson ehtiyojlari hosilasi ekanligiga urg‘u berishadi. Jumladan, F.Nisshening fikricha, «Inson o‘zini saqlab qolish uchun avvaliga narsalarga qiymat yuklab, ularga insonga xos ma’no-mazmun baxsh etgan. Shu sababli o‘zini baholovchi inson deb atagan»[1].

Anglashiladiki, biror bir obyekt insonning baholovchi munosabati, uning darajasi, kuchi asosida qadriyat tavsifiga ega bo‘ladi. Har qanday baholovchi munosabat inson manfaatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Shu jihatdan qadriyatlarning belgilanishida baholashning xarakteri muhim rol o‘ynaydi. Bu haqida O.G.Drobnitskiy quyidagi fikrlarni bildirgan: «Qadriyat predmetlarga ixtiyoriy ravishda yozilmaydi, ularni tajriba yoki mantiqiy mushohada bilan ham bilib bo‘lmaydi. Qadriyatlar narsalar bilan qandaydir tarzda bog‘liq, ammo ularning real xossasi emas va bu predmetlarning haqiqatda mavjud yoki mavjud emasligiga ham bog‘liq emas. Shu ma’noda qadriyatlar real emas, balki faqat ideal.., lekin qadriyatlar ong hodisalariga ham taalluqli emas. Bir-birini istisno qiluvchi ushbu qoidalar baholash tabiatining o‘ziga xos g‘ayritabiiyligi bilan bog‘liq»[2].

Bu o‘rinda baholash har doim ham ijobiy xarakterda bo‘lmasligini e’tirof etish lozim. Baholash obyekt qiymatini belgilovchi kategoriya bo‘lganligi uchun nafaqat ijobiy, balki salbiy xarakterda bo‘lishi ham mumkin. Ammo qadriyat inson tomonidan ijobiy deb baholanuvchi, uning manfaatlariga xizmat qiluvchi narsalar, g‘oyalar, qarashlar, xatti-harakatlar, odatlar, an’analar majmuyi sanaladi. Shu jihatdan ham qadriyat *ezgulik* tushunchasi bilan yonma-yon yuradi. Ammo ayrim olimlar, xususan, G.F.Gibatovaning ta’kidlashicha, qadriyat ham salbiy, ham ijobiy bo‘lishi mumkin, shuning uchun qadriyat biopolyar strukturaga ega, har qanday qadriyatga aksqadriyat muvofiq keladi[3]. Bunday fikr F.Usmonov tadqiqotida ham kuzatiladi. Uning fikricha, «… qadriyatli manzara uzvlari iyerarxiyasi ikki qutbli tuzilishga ega bo‘ladi, ya’ni uning tuzilishi faqat bir tomonga emas, manfiy va musbat tomonga yo‘nalgan tuzilishga ega. Musbat qutbning yuqori nuqtasi yuksak qadriyat hisoblansa, manfiy qutbdagi chegara aksqadriyat hisoblanishi mumkin. Masalan, sadoqat yoki mehnatsevarlik qadriyat bo‘lsa, xiyonat hamda dangasalik aksqadriyat[4] hisoblanadi. Bunday holat idrok intizomida aksiologik bahoni namoyon etadi. Madaniyat, birinchi navbatda, qadriyatli mazmunga ega, u yaxshi va yomon, to‘g‘ri va nojo‘ya haqidagi tasavvurlarni o‘zida aks ettirgan tizimdir. Bunda nimanidir qadriyat deb bilgan shaxs uning ziddini ham o‘z ongida saqlaydi. Yaxshining yaxshiligi yomonga zidlanganda ko‘rinar ekan, aksqadriyat tizim strukturasidan o‘rin olishi tabiiy»[5].

Bizningcha, qadriyat ijobiy baholash hosilasi ekan, salbiy bahoga ega obyektning qadriyat (aksqadriyat) sifatida baholanishi mantiqan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki *qadriyat* so‘zida «qadrlilik, qadrlanuvchi» semalari ustun. Shu jihatdan jamiyat a’zolari tomonidan faqat ijobiy baholangan va qadrli deb hisoblangan, ular ongidan qadriyat sifatida o‘rin olgan obyektni qadriyat hisoblash mumkin.

Bu masalada biror bir qadriyatga nisbatan kishilarda hosil bo‘ladigan ijobiy va salbiy munosabat haqida fikr yuritish to‘g‘riroq bo‘ladi. Ma’lumki, jamiyatda belgilangan qadriyatlarning mohiyati qadriyat hisoblanmaydigan hodisalar asosida belgilanadi. Kim uchundir ijobiy deb hisoblangan qadriyat boshqa bir inson uchun qadriyat bo‘lmasligi mumkin. Har bir millat yoki insonning qadriyatli munosabatda bo‘luvchi o‘z olami mavjud. Masalan, o‘zbeklar uchun qadriyat sanalgan palov boshqa millat vakillari uchun qadriyat emas. Yoki milliy xarakterdagi qadriyatlar ham bir millatga mansub turli kishilar tomonidan turlicha qabul qilinishi mumkin. Shunga ko‘ra jamiyat a’zolari tomonidan belgilangan umummilliy qadriyatlarni ayrim shaxslar tomonidan qadriyat sifatida qabul qilinuvchi qadriyatlardan farqlash lozim. Bu borada amerikalik aktyor, qo‘shiqchi E.Preslining qadriyatlarning turlicha ekanligi haqidagi quyidagi fikri diqqatga sazovor: «Qadriyatlar barmoq izlariga o‘xshaydi. Hammada har xil va shu bilan birga ular siz qilayotgan har bir ishda ko‘zga tashlanadi» [6].

---

[1] Ницше Ф. Так говорил заратустра. Сочинения в 2 т. Т.2. – М., 1990. – С.42.

[2] Дробницкий О.Г. Мир оживших предметов. Проблема ценности и марксистская философия. – М.: Политиздат, 1967. – С. 25.

[3] Гибатова Г.Ф. Аксиология в языке // Вестник ОГУ, 2011. – №2 (121). – С.42.

[4] Бойко Л.Г. Культурно маркированное содержание устойчивых сравнений русского языка: Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2009. – С. 29.

[5] Usmanov F. O‘zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti: Filol. fan. dokt. (DSc) … diss. – Andijon, 2024. – S. 65.

6 https://ru.citaty.net/temy/tsennost/

Yana bir jihat shundaki, inson qadriyatlarni muayyan darajalarga bo‘ladi va bunday darajalanish ham turli jamiyatlarda bir-biridan farq qilishi mumkin. Masalan, o‘zbeklar uchun oila hech qachon qadriyatlar tizimining eng quyi yoki o‘rta pog‘onasidan o‘rin olmaydi. Qadriyatlar tizimida ko‘pincha inson hayoti oliy qadriyat sifatida tavsiflanadi. Mashhur nemis filosofi I.Kant insont hayotini oliy qadriyat hisoblaydi. Uning fikricha, «Hayotini oliy darajadagi qadriyat deb bilgan insonlar o‘limdan eng kam qo‘rqadilgan odamlardir» [1]. Mashhur fizik A.Eynshteyn ham inson hayotini oliy qadriyat sifatida ko‘rsatgan edi. Uning ta’kidlashicha, «Alohida shaxsning hayoti boshqalarning turmushini go‘zalroq va olijanobroq qilishga yordam bera olgan taqdirdagina ma’noga ega bo‘ladi. Hayot muqaddas, aytish joizki, hayot unga boshqa barcha qadriyatlar bo‘ysunadigan oliy qadriyatdir»[2].

Qadriyat so‘zi turli sohalarning o‘rganish obyekti bo‘lganligi uchun ham lug‘atlar va tadqiqot ishlarida turlicha izohlanadi. Masalan, «Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati»da *qadriyat* termini quyidagicha izohlangan: «QADRIYAT Real voqelikning namoyon bo‘lish shakllari, undagi narsa, hodisa va jarayonlar, shuningdek, insoniyat, jamiyat, odamlar, ularning hayoti, faoliyatining ijtimoiy subyektlar uchun ahamiyati va qadrini anglatadigan umumaksiologik kategoriya; inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar»[3].

Qadriyatga berilgan ushbu izohda uning insonlar uchun ahamiyatli, qadrli bo‘lishi belgisi inobatga olingan. Darhaqiqat, insonning tashqi olamdagi narsalarga qadriyatli munosabati inson va narsalar o‘rtasida aloqa-bog‘lanishni hosil qilsa, jamiyatda qadriyat sifatida baholanuvchi g‘oyalar, qarashlar uni biror bir faoliyat, xatti-harakatni amalga oshirishga rag‘batlantiradi, hayot yo‘lini izga solishida tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

«Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati»da qadriyatga berilgan izohda esa uning ma’naviyat tarkibiy qismi ekanligi va qadrni anglatishiga urg‘u berilgan: «Qadriyat inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalaydi»[4].

«Tarbiya ensiklopediyasi»da qadriyatga quyidagicha tavsif berilgan: «Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha»[5]

A.Erkayev qadriyatning insoniyat mavjudligini ta’minlashi, maqsadiga erishishga yo‘naltirishi, milliylik xususiyatiga e’tibor qaratadi. Uning ta’kidlashicha, «qadriyatlar – ijtimoiy ongning nisbatan umumiy (umummilliy) ahamiyat kasb etgan, e’tiqod va qadriyatlar darajasiga ko‘tarilgan sobit ehtiroslari, tushunchalari, me’yorlari, ijtimoiy mo‘ljallari, amallaridir, ularning badiiy, ilmiy, falsafiy, diniy merosda, urf-odatlarda obyektivlashgan tizimi hamda millatni muayyan maqsadlarga erishish uchun yo‘naltiradigan milliy iroda, milliy g‘urur va or-nomusdir. U jamiyatda qaror topgan va insonning asl mavjudligini ta’minlaydigan aqliy va hissiy, ruhiy va mafkuraviy muhitdir» [6].

F.Usmonov esa *qadriyat* deganda ma’lum bir tarixiy davr va muhitda ijtimoiy ahamiyatli bo‘lgan, ijobiy baholanuvchi, o‘ziga nisbatan intilish uyg‘otuvchi ideal hodisalarni tushunishi, milliy qadriyat esa millat hayotida shu talablarga javob beruvchi, ma’lum pog‘onaviylikda joylashgan, jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va uning a’zolarida ijobiy hissiyot uyg‘otuvchi mazmun ekanligi[7]ni yozadi. Ko‘rinadiki, muallif qadriyatni inson manfaatlariga xizmat qiluvchi ijobiy xarakterdagi ideal hodisa sifatida tushunadi.

Berilgan ta’rif va tavsiflardan ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek olimlari qadriyatga har xil tavsif berishgan. H.P.To‘xtayev ham buni e’tirof etib, quyidagi fikrni bildirgan: «ilmiy adabiyotlarda «qadriyat» tushunchasiga ko‘proq ijtimoiy-falsafiy jihatdan yondashilganiga guvoh bo‘lamiz. Bunda aksiologik tarafidan ko‘ra, qadriyatlarning umumlashib, yaxlit hodisa ko‘rinishida yuzaga chiqadigan ijtimoiy mezon sifatidagi xususiyatiga ahamiyat qaratiladi. Bunday tavsiflarda ijtimoiy tahlil ustuvor ekanligi sezilib, qadriyatlarning odamlarni qalban va ruhan ulg‘aytirishi, ichki olamini boyitib, ruhini poklashi, iymon-e’tiqodini mustahkamlab, insof-u adolat tuyg‘ularini rag‘batlantirishi masalalariga urg‘u beriladi. Shu bilan birga, qadriyatlarning jamiyat a’zolari tayanadigan kuchli ruhiy omil sifatidagi asosiy xususiyati yoritiladi»[8].

Rus olimlari asarlarida hamda rus tilidagi lug‘atlarda ham qadriyatning turlicha tavsiflari uchraydi.

1 https://ru.citaty.net/temy/tsennost/

2 https://ru.citaty.net/temy/tsennost/

[3] Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – B.72.

4 Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2009. – Б.333.

5 Тарбия энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2010. – Б.509.

6 Эркаев А. Маънавият – миллат нишони. – Тошкент: Маънавият, 1997.

7 Usmanov F. O‘zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti: Filol. fan. dokt. (DSc) … diss. – Andijon, 2024. – S. 68.

[8] Тўхтаев Ҳ.П. “Қадриятлар соҳаси” ва “аксиология қонуниятлари” тушунчаларининг ижтимоий-фалсафий таҳлили // chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://cdn.uza.uz/2023/08/18/11/21/ghpPW3VK2 afSWBsGrvS8VKmgIF-W1hGRK.pdf.

Jumladan, «Filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar»-da qadriyatga quyidagicha tavsif berilgan: «inson faoliyati, ijtimoiy munosabatlar va ular atrofidagi tabiiy hodisalarning ko‘pqirraliligi qadriyatli munosabatlar obyekti sifatida «predmetli qadriyatlar» sirasiga kirishi mumkin. Ya’ni ular yaxshilik va yomonlik, haqiqat va haqiqat emaslik, go‘zallik yoki xunuklik, ruxsat etilgan yoki taqiqlangan, adolatli yoki adolatsiz va hokazolar nuqtayi nazaridan baholanishi mumkin. Muayyan hodisalarni baholash tartib-qoidalarining asosi bo‘lgan baholashning usul va mezonlari jamoat ongi va madaniyatida «subyektiv qadriyatlar» (me’yoriy tushunchalar shaklida ifodalangan ko‘rsatmalar va baholar, buyruqlar va taqiqlar, maqsadlar va loyihalar) sifatida mustahkamlanib, inson faoliyatida ko‘rsatma vazifasini bajaradi»[1].

Ko‘rinadiki, ushbu ta’rifda qadriyatlarning baholash asosida yuzaga kelishi inobatga olingan, qadriyatli munosabatlarning obyekti va subyekti farqlangan.

Aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, *qadriyat* tushunchasi tor va keng ma’nolarda talqin qilinadi. Keng ma’noda bu tushuncha ostida odamlarning xohish-istaklari, ehtiyojlari, intilishlari, qiziqishlari obyekti bo‘lgan barcha narsalar nazarda tutiladi[2]. Tor ma’noda esa jamiyat tomonidan qadrlanadigan, uning manfaatlariga xizmat qilinadigan, jamiyat ongida o‘rnashgan ijobiy baholanuvchi obyekt, g‘oya, odat, an’analardir.

Olimlar qadriyatlarni turli jihatdan tasniflashadi. J.To‘lanovning ta’kidlashicha, «... qadriyatlar o‘z mohiyatiga ko‘ra xilma-xildir. Ular orasida tabiiy, moddiy, ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qadriyatlar alohida ajralib turadi. Shunday bo‘lsa-da, qadriyatlarning eng oliysi insonning o‘zi, hayoti, huquqi va erki, sog‘lom va farovon turmushi hisoblanadi. Inson qadr-qimmatini, sharafini ulug‘lash jamiyatimiz poklanishi va ravnaqining muhim omilidir»[3].

M.Sheler qadriyatlarning quyidagi turlarini ajratgan: shaxsiy va predmetli qadriyatlar; xususiy va o‘zgaga xos qadriyatlar; aktlar, vazifalar, reaksiyalarni anglatuvchi qadriyatlar; ishontirish, harakat, muvaffaqiyat qadriyatlari; maqsad va holat qadriyatlari; asoslar, shakllar, munosabatlar qadriyatlari; individual va jamoaviy qadriyatlar; o‘z va ishlab chiqilgan qadriyatlar[4].

M.P.Danilkova esa qadriyatlarning iqtisodiy, estetik, axloqiy, diniy, individual va jamoaviy kabi turlarini farqlagan[5] .

G‘.G‘ofurov qadriyatlarni quyidagi turlarga ajratadi: 1) tabiiy qadriyatlar; 2) iqtisodiy qadriyatlar; 3) ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar; 4) ma’naviy qadriyatlar; 5) axloqiy qadriyatlar[6].

Qadriyatlar ichida milliy qadriyatlar alohida o‘rin tutadi. S.Ochil milliy qadriyatlarga quyidagilarni kiritgan: «... Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, Navro‘z, urug‘-don ekish va hosil bayramlari, beshik to‘yi, sunnat to‘yi, o‘g‘il uylantirish va qiz chiqarish bilan bog‘liq to‘ylar, uy-joy to‘yi, qazo bilan bog‘liq turli ma’raka-marosimlar, shuningdek, xalqning har xil an’analari – hashar, ota-onalarga hurmat, yoshlarga izzat, qariyalarga muruvvat, milliy odob-axloq me’yorlariga amal qilish, ilm olish, oila mustahkamligiga erishish, ustozlar qadriga yetish, vafot etganlar qabrini ziyorat etish, xalqqa muhabbat, Vatanni sevish va ardoqlash, askarlikka o‘z ixtiyori bilan borish, baynalmilalchi bo‘lish, muloyim va shirinsuxanlik...»[7] Ushbu tasnif tarkibiga tilni ham milliy qadriyat turi sifatida kiritish lozim.

Tasniflardan anglashiladiki, qadriyatlar turli-tuman, ulardan biz uchun muhim bo‘lgani tildir. Til kishilar tomonidan milliy-madaniy qadriyat sifatida tavsiflanadi. Til kishilar o‘rtasida kommunikativ aloqani ta’minlashi, insonning his-tuyg‘ularini aks ettirishi, axborotni tashishi va avlodlarga yetkazishi kabi qator funksional xususiyatlarga egaligi, millatning mavjudligi, davlat shakllanishining muhim sharti ekanligiga ko‘ra qadriyat sanaladi. Bejiz xalqimiz til haqida «Har kim o‘z till bilan tirik» maqolini yaratmagan. Tilning bu kabi vazifalari uni qadrlash, avaylab-asrash uchun muhim asoslardan biri hisoblanadi.

Aksiolingvistikada qadriyat turi deb qabul qilingan aynan shu til, u orqali voqelangan boshqa qadriyatlar, ular o‘rtasidagi munosabat, jamiyatda qadrli deb baholanuvchi narsa-predmetlar, qarashlar, urf-odatlarni tilda aks ettirish usullari va vositalari o‘rganiladi.

Xullas, aksiolingvistika antropotsentrik tilshunoslikning yangi yo‘nalishi bo‘lib, tilda aks etgan qadriyatlar va ularning muloqotdagi o‘rni masalasini o‘rganishi bilan tavsiflanadi.

---

[1] Философский энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1989. – С. 732.

[2] Qarang. Дробницкий О.Г. Мир оживших предметов. Проблема ценности и марксистская философия. – М.: Политиздат, 1967. – С. 305.

[3] Тўланов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б.333.

[4] Шелер М. Избранные произведения. – М.: Гнозис, 1994. – С. 319-321.

[5] Данилкова М.П. Критерии измерения ценностей // Идеи и идеалы. – № 3(5), т. 2. – 2010. – С. 54.

[6] Ғофуров Ғ. Миллий анъаналар // Халқ сўзи, 1993, 11 февраль. – Б. 2.

[7] Сафо Очил. Мустақиллик ва тарбия масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – Б.5-6.

Резюме. Ushbu maqolada antropotsentrik tilshunoslikning yangi yo‘nalishlaridan biri – aksiologinvistika, uning tadqiq masalalari, qadriyat tushunchasi, qadriyat turli haqida ma’lumot berildi.

Resume. This article provides information about one of the new branches of anthropocentric linguistics – *axiolinguistics*, its research issues, the concept of value, and the types of values.

Резюме. В данной статье представлена информация об одном из новых направлений антропоцентрической лингвистики – *аксиолингвистике*, её исследовательских задачах, понятии ценности и видах ценностей.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та’lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ANDIJON DIALEKTAL ZONASI HAQIDA

Sobirov Abdulhay Shukurovich,
Andijon davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Bugungi dunyo qaltis va tahlikali jarayonlarni boshidan kechirmoqda. Shu bilan birga, davlatlar va millatlar integral tarzda rivojlanib, bir-birlarini o‘rganishga, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy tomondan mustahkam aloqalar o‘rnatishga intilmoqda. Buning natijasida dunyoning lisoniy manzarasi ko‘z oldimizda yanada yaqqolroq namoyon bo‘lib bormoqda.

YUNESKOning «Ethnologue» tillar kartasida qayd etilishicha, yer yuzida 142ta til oilasiga tegishli 7151ta til mavjud[1].

Yana bir manbada tillarning soni 2700ta, dialektlari bilan qo‘shib hisoblaganda 7000dan ortiq ekanligi aytiladi[2].

Ular ichida so‘z boyligining kattaligi, ifoda imkoniyatlarining kengligi, o‘ziga xos betakror latofati bilan o‘zbek tili alohida ajralib turadi. U jahonda o‘ziga yarasha nufuzga, qadim tarixga va son jihatidan juda ko‘p shevalar hamda dialektlarga ega bo‘lgan tillardan biridir. Shunga ko‘ra, hozirgi o‘zbek adabiy tilining shaklllanishi va taraqqiy topishida sheva va dialektlarning o‘rni katta bo‘lgan. Lekin, alohidaa ta’kidlash joizki, o‘tgan asrning boshlariga qadar o‘zbek tiliniing dialektal asoslarini o‘rganishga deyarli e’tibor qaratilmagan. Ma’lumotlarga ko‘ra, 1921-yilga qadar faqat o‘zbek va sort dialektlari bir-biridan farqlangan[3].

Ilm-fan, texnika taraqqiyoti, hayotimizga ko‘plab yangilikning kirib kelishi o‘zbek tilini bir nechta ilmiy yo‘nalishlarda tadqiq etishga keng yo‘l ochib berdi. Buni davrning o‘zi talab qilmoqda. Dunyo tillari bilan tenglashish, yetakchi tillar qatoridan joy olish uchun, avvalo, tilimizninig ichki imkoniyatlarini chuqur o‘rganishimiz kerakligini zamonning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Hozirga kelib o‘zbek tili yuzlab dialektlarni o‘z ichiga olgan dunyoning eng baquvvat tillaridan biriga aylandi. *Uzcaa.uz* saytida ta’kidlanishicha, o‘zbek tilida so‘zlashuvchilarning soni 50 milliondan ortib ketdi va so‘zlashuvchilarning soni bo‘yicha dunyoda 27-pog‘onani band etib turibdi[4] . Bu holat bizga, ya’ni o‘zbek tili sohiblariga katta mas’uliyat yuklaydi. O‘zbek tilining barcha sohalari bo‘yicha jahon stan-

[1] https://ru.wikipedia.org.
[2] https://www.google.com/search.
[3] https://e-trans.ru/languages/Uzbek.
[4] uzcaa.uz.